

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishi” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
<p data-bbox="197 400 721 791">Afg‘on shamoli vaqtida mahalliy aholini, ayniqsa, maktab va maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarning chang bo‘ronlarining salbiy ta‘sirlaridan himoya qilish maqsadida sinf va mashg‘ulot xonalaridagi havo sifatini yaxshilash</p> 	<p data-bbox="831 357 1211 392">Tadqiqot shakli: Amaliy.</p> <p data-bbox="831 397 1211 432">Tahliliy va tayyorgarlik:</p> <p data-bbox="831 437 2051 660">Surxondaryo viloyatida chang bo‘ronlari kuzatiladigan hududlar va ta‘lim muassasalari holatini o‘rganish; Sinf va mashg‘ulot xonalarida havo sifati (PM2.5, PM10) ko‘rsatkichlarini aniqlash; Mavjud infratuzilma va sanitariya-gigiyena sharoitlarini tahlil qilish; Xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish va moslashtirish.</p> <p data-bbox="831 671 1144 707">Loyihani joriy etish:</p> <p data-bbox="831 711 2051 1358">Tanlab olingan maktab va maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida: HEPA filtrli havo tozalagich qurilmalarini o‘rnatish; Yopiq shamollatish (ventilyatsiya) tizimini tashkil etish; Nam tozalash va sanitariya rejimini kuchaytirish; Maktab va maktabgacha ta‘lim tashkilotlari hududlarida favvoralar tashkil etish; Sinf xonalariga fitofiltr xususiyatiga ega o‘simliklarni joylashtirish; Chang bo‘ronlari vaqtida “yopiq muhit rejimi”ni joriy etish; Pedagog va xodimlar uchun amaliy seminar va treninglar o‘tkazish.</p> <p data-bbox="831 1091 2051 1171">Monitoring va baholash: Havo sifati ko‘rsatkichlarini muntazam o‘lchash va tahlil qilish;</p> <p data-bbox="831 1182 2051 1262">Bolalar salomatligi (nafas yo‘llari kasalliklari, davomat) ko‘rsatkichlarini monitoring qilish;</p> <p data-bbox="831 1273 1727 1308">Amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash;</p> <p data-bbox="831 1319 1906 1355">Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.</p>

Natijalarni ommalashtirish: Tajriba-sinov natijalarini hududiy va respublika miqyosida joriy etish;

Metodik qo‘llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqish;

Ta‘lim muassasalari uchun yagona amaliy standartlar yaratish.

Kutilayotgan natijalar:

Sinf va mashg'ulot xonalarida havo sifati yaxshilanadi;

Chang zarrachalari (PM2.5, PM10) miqdori kamayadi;

Bolalarda nafas yo'llari kasalliklari kamayadi;

Ta'lim muassasalarida sog'lom va xavfsiz muhit yaratiladi;

Hududda ekologik madaniyat va gigiyena ko'nikmalari oshadi.

Natijalarni sinovdan o'tkazish. Olingan natijalar Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga qarashli tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining** xulosasi olinadi.

Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va *Web of Science/Scopus* ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi

Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining** qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.